



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI**  
**HOKIMINING**  
**QARORI**

2024-yil 27-sentabr

451-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati  
hokimligi

**Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasiga Shahrisabz tumanidagi  
ichki yo‘llarning egallab turgan yer maydonini doimiy foydalanish huquqi  
asosida ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 23-sentabrdagi 699-son va Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 16-sentabrdagi 157- son buyurtma xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasiga Shahrisabz tumanidagi ichki yo‘llar egallagan, tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 12,15 gektar boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.
3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.
4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining [www.qashqadaryo.uz](http://www.qashqadaryo.uz) rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**

Qashqadaryo viloyat hokimining  
2024-yil 27-sentabrdagi  
451-4-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**2024-yil Tashabbusli budjet doirasida ichki yo‘l obyektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumot**

| <b>T/r.</b> | <b>Tuman nomi</b> | <b>MFY nomi</b>                                                                | <b>Yo‘l uzunligi (km)</b> | <b>Gektari</b> |
|-------------|-------------------|--------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|----------------|
|             |                   |                                                                                | 27                        | 12,15          |
| 1           | Shahrisabz tumani | “Hisor” MFYdagi Vardon, Do‘stlik va Sho‘rhasan qishloqlarining ichki yo‘llari. | 3,8                       | 1,71           |
| 2           |                   | “Hisor” MFYdagi Xummon qishlog‘i ichki yo‘llari.                               | 3,8                       | 1,71           |
| 3           |                   | “Qo‘shchinor” MFY Bijnom qishlog‘idagi ichki yo‘l.                             | 3,8                       | 1,71           |
| 4           |                   | “Hisor” QFY Qorabayir qishlog‘i ichki yo‘l ko‘chalari.                         | 3,8                       | 1,71           |
| 5           |                   | “Toshbuloq” MFY Pastdektor qishlog‘i ichki yo‘llari.                           | 3,8                       | 1,71           |
| 6           |                   | “Maktabobod” MFY Turmush qishlog‘i ichki yo‘llari.                             | 4                         | 1,8            |

|   |  |                                                        |   |     |
|---|--|--------------------------------------------------------|---|-----|
| 7 |  | “Bog‘ishamol” MFY Qorapoycha qishlog‘i ichki yo‘llari. | 4 | 1,8 |
|---|--|--------------------------------------------------------|---|-----|